

## INSONNING QO`L YOZUV HARAKATI STRUKTURASI TIZIMINING, TUZILISHINI O`RGANISHDA KRIMINALISTIK VOSITALAR VA USULLAR

*Mirzaqulov Jahongir Xasan o`g`li*

*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 325-guruh kursanti*

*Ilmiy rahbar – Sobirov Furqat Bahromboy o`g`li*

*IV Akademiyasi Kriminalistik-ekspertizalare kafedrasи o`rnbosari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insonning qo`l yozuv harakati strukturasi tizimi, uning tuzilishini, qoldirilgan izlar strukturasi, barnoqizlarni olish va rasmiylashtirish usullari, kriminalistik baho berish, tusmollar tuzish, uni aniqlashhamda kriminalistik vositalar va usullar haqida so`z boradi.

**Kalit so‘zlar:** qo`llar, barmoqlar, kaft izlari, daktiloskopiya, ekspertlar mahorati, daliliy ashyolar, xatshunoslik, qoldirilgan izlar, zarrachalar, ishlov asboblari, trassalogiya, izlar, xodisa joyi, tadqiqotlar amalga oshirish.

### КРИМИНАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА И МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ СИСТЕМЫ И СТРУКТУРЫ ПОРУКОВЫХ ДВИЖЕНИЙ ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация:** В данной статье говорится о системе строения движения человеческого почерка, его строении, структуре оставляемых следов, методах получения и оформления отпечатков пальцев, проведения криминалистической оценки, создания закономерностей и их идентификации, а также о криминалистических инструментах и методах.

**Ключевые слова:** руки, пальцы, отпечатки ладоней, дактилоскопия, экспертиза, доказательные материалы, хиромантия, оставленные следы, частицы, орудия обработки, трасология, следы, место преступления, проведение исследования.

### CRIMINAL TOOLS AND METHODS IN STUDYING THE SYSTEM AND STRUCTURE OF HUMAN HANDWRITING MOVEMENT

**Annotation:** This article talks about the system of the structure of human handwriting movement, its structure, the structure of the traces left, the methods of obtaining and formalizing fingerprints, making a criminalistic evaluation, creating patterns, and identifying it, as well as criminalistic tools and methods.

**Key words:** hands, fingers, palm prints, dactyloscopy, expertise of experts, evidentiary materials, palmistry, traces left, particles, processing tools, traceology, traces, crime scene, conducting research.

Bugungi kunda jamiyat rivojlanishi bilan bir qatorda unda sodir bo‘layotgan jinoyatlarning xam turli xil yangi ko‘rinishlari paydo bo‘lib bormoqda. Sodir etilgan

jinoyatlarga to‘la va xolisona baxo berishda, ularning tub moxiyatini aniqlashtirishda ekspertiza xulosalarining o‘rni katta. Chunki, ekspertiza tadqiqotlari orqali jinoyat xodisasiga aloqador bo‘lgan juda ko‘plab xolatlar aniqlanishi mumkin.

Trasologik ekspertizalarning o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan, ichki ishlar idoralari xodimlari amaliyotida tez-tez uchrab turadigan, jinoyatlarni ochishga bevosita yordam beradigan bir turi bu buzish qurollari izlarining trasologik ekspertizasidir.

Jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etishga va jazolashga yo‘nalgan jinoiy sud amaliyoti masalalarining hal etilishi har bir jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni tiklash bilan uzlusiz bog‘liq. Faqatgina jinoyat hodisasini har tomonlama tadqiq etish orqali unga aloqador barcha shaxslarning o‘rnini va jinoyat sodir etish shart-sharoitlarini yetarli ishonchlilikda aniqlash mumkin. Atrof-muhitda jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar ushbu harakatlarga mos ta’sir etgan shaxs yoki predmetning o‘ziga xosliklari aks etgan muhitda muayyan o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Jinoyatlarni tergov qilishda isbot manbasining asosiylaridan biri sifatida qo‘llaniladigan bunday o‘zgarishlar kriminalistikada moddiy izlar, deb ataladi. Moddiy izlarni topish, qayd etish va tadqiq etish metodikalarining ilmiy ishlanishi, tabiiy va texnik fanlarning zamonaviy yutuqlari asosida ularning hosil bo‘lish qonuniyatları tahlili «izlar to‘g‘risidagi kriminalistik ta’limot yoki trasologiya» kabi kriminalistik texnikaning mustaqil sohasi paydo bo‘lishiga olib keldi.

Trasologik ekspertizalar kriminalistik texnika fanining bir tarmog‘i sifatida hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak va shu bilan birga nazariya bilan amaliyotni o‘zaro bog‘lashida muhim o‘rin tutadi Trasologik ekspertizalar rivojlangan zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlarga ega bo‘lib, jinoyat ishlari bo‘yichaadolatni yuzaga chiqarishda odil sudlovni demokratik asosida tarakkiy etib borishda qonuniylikni mustahkamlash va muhim shart sharoitlarni belgilaydi. Gnoseologik nuqtai nazardan jinoyat sodir etilishi oqibatida atrofmuhitdag‘i har qanday o‘zgarishlar jinoyat izlari sifatida tan olinadi. B. I. Shevchenkoning ta’kidlashicha, «jinoyat izlari» tushunchasi jinoyatning turli bosqichlarida jinoyatchining xatti-harakatlari samarası o‘laroq yuzaga 13 kelgan har qanday moddiy o‘zgarishlarni qamrab oladi. Mazkur holat kriminalistika fanining butun rivojlanish davrida «iz» tushunchasining turlicha talqin etilishiga sabab bo‘lgan. Masalan, «keng ma’noda izlar» iborasi kiritilib, jinoyatning har qanday, shuningdek jinoiy oqibatlari nazarda tutilgan, aksincha, «tor ma’nodagi izlar» deganda, u yoki bu obyektning tashqi tuzilishini ifodalovchi izlar nazarda tutilgan. Shubhasiz, bu kabi talqin muhim ahamiyatga ega, zero agar izning akslanish jarayonini oxirgi natija deb qabul qiladigan bo‘lsak, akslanish mexanizmining o‘zini e’tiborga olmaslikning iloji yo‘q. Bunda izlar u yoki bu obyektning tashqi tuzilishini aks ettirmasligi mumkin, biroq ularning yuzaga kelish mexanizmini aniqlashga imkon beradi. Mazkur holatni hisobga olar ekan, I. Kertes obyektning tashqi tuzilishini aks ettiruvchi izlar bilan bir qatorda, harakat (faoliyat)ni aks ettiruvchi izlarni ham tan olishni tavsiya etadi. Harakatni aks ettiruvchi izlar odamning ko‘nikma, odat va ruhiy sifatlarini ifodalovchi izlarga hamda mexanik faoliyatni aks ettiruvchi izlarga bo‘linishi mumkin. Inson ko‘nikmalarini aks ettiruvchi birinchi guruhdagi izlarga funksional-dinamik kompleks (FDK)ni ifodalovchi bir xildagi xatti-harakatni qayta-qayta takrorlash natijasida hosil bo‘lgan izlar kiradi. Mazkur turdag‘i izlar trasologik ekspertiza obyektlarida uchrab turadigan qadam tashlash (yurish) izlari, (oyoq

izlarining yo‘lagi), tugunlar, qo‘l choklari bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, izlarga berilgan trasologik ta’rifga muhim o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, hozirgi kunda trasologiya obyekti sifatida «iz» tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: izlar – moddiy obyektlar tashqi tuzilishining akslanishi va iz hosil bo‘lish mexanizmini o‘z ichiga oladi. Trasologiyaning taraqqiy etishi davomida o‘rganish obyekti sifatida «iz» tushunchasini aniqlash hamda trasologiyaning ilmiy bazasini yaratish borasida quyidagi asosiy prinsiplar ilgari surilgan: Tergov qilinayotgan jinoyatlar bilan bog‘liq izlarning yuzaga kelish manbalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) qurol, asbob, mexanizmlar va transport vositalaridan foydalanuvchi odamlar harakatlari; b) hayvonlarning bir joydan boshqa joyga ko‘chirilishi; v) tashqi tuzilishga ega qattiq, shuningdek suyuq, sochiluvchan va turg‘un shaklga ega bo‘lman buyumlarning harakatlanishi. Iz hosil bo‘lishida tergov qilinayotgan hodisaga aloqador ikki va undan ortiq (iz hosil qiluvchi va sirtida iz hosil qilingan) obyektlar ishtirot etadi. 14 Izlarning o‘zlari muayyan sharoitda ko‘rsatib o‘tilgan obyektlar va ularga tegishli xossalarning iz hosil bo‘lgan yuzada moddiy akslanishini tashkil qiladi. Izlarda: a) obyektlarning o‘zaro ta’sir hodisasi; b) ta’sir shakli (fizik, kimyoviy, biologik); v) ta’sir yo‘nalishi va kuchi; g) iz hosil bo‘lish mexanizmi va shartlari; d) iz hosil bo‘lishda qatnashuvchi obyektlarning xossalari o‘z aksini topadi. Bunda obyektlarning tashqi tuzilishini belgilovchi sifatlar asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Iz hosil bo‘lgan obyektda yuzaga kelgan o‘zgarishlarning o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra, ikki turdagи izlar ajratiladi: hajmli va yuzaki. Hajmli izlar iz hosil qiluvchi obyektning buzilishi (deformatsiyasi) natijasida yuzaga keladi. Bunda iz qabul qiluvchi obyekt bilan yaqinlashish joyi yangicha shaklga kirib, obyekt sirtining u yoki bu darajada buzilishini aks ettiradi. Hajmli izlar hosil bo‘lishida odatda iz qabul qiluvchi obyekt, basharti, u bir turda va nisbatan qattiq xossaga ega bo‘lgan taqdirda, qisman buziladi (masalan, yog‘ochdagи zarba izlari, poyafzalning yumshoq tuproqdagи izlari). Aksincha, u bir turga oid xususiyatga ega bo‘lmasa, moddaning avvalgi holati o‘zgaradi (masalan, sochiluvchan qumda va qalin yo‘l changidagi avtomobil shinalarining izlari va hokazo). Mazkur turdagи izlarning o‘ziga xos xususiyati ularda iz hosil qiluvchi obyektning hajmli, uch o‘lchamda aks etishi bo‘lib, bu, o‘z navbatida, izni tekshirish orqali obyektning ta’sir etilayotgan qismi tashqi ko‘rinishidagi sifatlar to‘g‘risida fikr yuritish imkonini beradi. Hajmli izlarda obyekt tashqi tuzilishining akslanish sifatiga iz hosil qiluvchi obyekt (buyum)ning quyidagi xususiyatlari jiddiy ta’sir ko‘rsatadi: qattiqlik. Iz qabul qiluvchi obyektning qattiqligi qanchalik kam bo‘lsa, undagi iz shunchalik to‘liq va aniq akslanadi; obyekt moddasining tuzilishi. Izlar qayishqoq, yaxlit (turdosh) va mayda donali moddalarda boshqa moddalarga qaraganda yaxshiroq akslanadi; iz hosil bo‘lish natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni saqlab qolish xususiyati. Bu xususiyat qanchalik yuqori bo‘lsa, izning akslanishi shunchalik aniq va mustahkam bo‘ladi. Mazkur omillarning hammasi u yoki bu darajada iz hosil qiluvchi obyekt tashqi tuzilishining akslanishiga ta’sir etgani bois, ular izlarni o‘rganishda hisobga olinadi. Yuzaki izlar – iz qabul qiluvchi obyekt sirtining o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladigan izlardir. Bunday o‘zgarishlar quyidagi omillar natijasida yuzaga keladi: 15 iz qabul qiluvchi obyektga iz hosil qiluvchi obyekt parchalari, moddaning o‘zi yoki uning tarkibida bo‘lgan boshqa moddaning qoplanib qolishi, bunday izlar qatlama izlari deyiladi; iz hosil qiluvchi obyekt tomonidan iz qabul qiluvchi obyekt tarkibiga kiruvchi

moddaning ko‘chishi, sinib tushishi, bunday izlar ko‘chish izlari deb ataladi; iz qabul qiluvchi obyekt sirtining fizikaviy, kimyoviy va boshqa hodisalar ta’siri ostida o‘zgarishi va hokazo. Iz hosil qiluvchi obyektning to‘liq va sifatli akslanishi ko‘p hollarda quyidagilar bilan belgilanadi: iz qabul qiluvchi modda yuzasida iz hosil qiluvchi moddaning miqdori, moddaning kamligi yoki aksincha, juda ham ko‘pligi izdagi obyekt tashqi tuzilishining akslanishini susaytiradi; iz hosil qiluvchi moddaning sifati va qoplanishi iz hosil bo‘ladigan yuzaga yopishish xususiyati yoki aksincha, ko‘chish izi hosil bo‘lgan iz hosil qiluvchi obyekt bilan ta’sirga kirishish xususiyati; iz hosil bo‘lish mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari. Iz qabul qiluvchi obyektdagi o‘zgarishlarning joylashishiga qarab, hajmli va yuzaki izlar iz qabul qiluvchi obyektda mahalliy yoki pereferik joylashishi mumkin. Mahalliy izlar deganda, iz hosil bo‘lgan obyekt chegarasida hosil bo‘lgan izlarga aytildi. Pereferik izlar deb, iz hosil qiluvchi va iz qabul qiluvchi obyektlarning bir-biriga tegib turuvchi yuzalaridan tashqarida hosil bo‘lgan izlarga aytildi. Pereferik izlar hattoki iz hosil qiluvchi obyektdan tashqarida hosil bo‘lishi mumkin. Mahalliy izlar ko‘proq uchrab turadi. Xususan, ularga poyafzal yoki buzish quroli, qo‘llarning turli yuzalardagi hajmli (botiq) izlari kiradi. Statik izlar – bosib tushirilgan izlar bitta yo‘nalishdagi bitta ta’sir natijasida hosil bo‘ladi. Shu bois, tashqi o‘zgarishlar bitta joyda deyarli bir vaqtning o‘zida hosil bo‘ladi. Iz hosil qiluvchi obyektni dumalatish orqali yuzaga kelgan izlar statik izlar turiga kiradi. Zero, ularni iz hosil qiluvchi obyektlarning bir-biriga yaqin joylashgani, ammo ko‘rinishidan turlicha bo‘lgan sirdan yuzaga kelgan bosilgan izlar sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Dinamik izlar ikki kuchning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Ularning biri bosilgan iz hosil bo‘lishida, boshqasi iz hosil bo‘luvchi yuza bo‘ylab harakatlanishga ta’sir qilishi tufayli dinamik izlar iz hosil qiluvchi obyekt (buyum)ning sirtidan paydo bo‘lgan uzuksiz statik izlarni tashkil etadi.

Ichki ishlar organlarida markazlashgan tezkor-ma’lumot, qidiruv va kriminalistik hisoblar bilan bir qatorda markazlashgan va hududiy ekspertkriminalistik izlar kartotekasi hamda axborot-ma’lumot kolleksiyasi yuritiladi (IIV EKM, IIBB, IIB va TIIB EKB). IIV EKM va EKBning kolleksiyasi va kartotekasi, eng avvalo, jinoyatlarni aniqlash, ochish va tergov qilishga mo‘ljallangan. Jinoyatchilikka qarshi kurash natijalari ushbu ishning sifati va darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun u zamonaviy, har tomonlama to‘liq, shubhasiz, aniq ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Ekspert-kriminalistik hisob, jumladan trasologik tadqiqot obyektlari, kriminalistik qayd qilish turi sifatida ko‘riladi va maqsadi nafaqat tezkorqidiruv va tergov bo‘linmalariga axborotlarni taqdim etish, axborotlar hisobini to‘g‘ri, tizimlashtirilgan holda yuritish hamdir. Bu ma’lumotlarni tahlil qilishni ta’minlash imkonini beradi, uning natijalari esa jinoyatlarni samarali, ijobjiy ochish va tergov qilishda yordam beradi. Ushbu faoliyat tegishli hukumat qonunlar va idoraviy qonunosti aktlari, xususan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi buyruqlari bilan qat’iy belgilab qo‘yilgan. Trasologik tadqiqotlar obyektlarining ekspert-kriminalistik hisobi ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistik bo‘linmalarida ochilmagan jinoyat joylaridan olingan izlar va ashyoviy dalillar, shuningdek, kriminalistik ma’lumotga ega bo‘lgan boshqa manbalardan to‘liqroq, kengroq foydalanish uchun xizmat qiladi. Trasologik tadqiqotlar obyektlari izlar kartotekasi va

kolleksiyasining axborot asosi bo‘lib, ochilmagan jinoyat joylaridan olingan izlar, ularni yig‘ish, jamlash va bir xil hamda o‘xshash belgilari (buzish quollarining izlari, oyoq kiyimi izlari va avtomobil vositalarining shina qoplamlari va h.k.) bo‘yicha tizimlashtirish yoki jinoyatchilar tomonidan buzish quroli (moslamalar, qurilmalar, asbob-uskunalar to‘plami) sifatida qo‘llanilgan vositalar haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, video-yozuv apparaturalari va ma’lumotlarni yorug‘likka asoslangan qayd qilishning raqamli tizimlari 315 yordamida olingan muhim kriminalistik ahamiyatga ega bo‘lgan tasvirlar hisoblanadi. Shunday qilib, trasologik tadqiqotlar obyektlari izlar kartotekasi va kolleksiyasini tashkil qilish va yuritish deganda, ekspert-kriminalistik bo‘linmalarining xodimlari tomonidan obyektlar (buzish quollarining izlari, oyoq kiyimi izlari va avtomobil vositalarining shina qoplamlari va h.k.) yoki obyektlarning o‘zi (buzish quroli sifatida qo‘llanilgan moslamalar, qurilmalar, asbob-uskunalar to‘plami) haqidagi ma’lumotlarni, jinoyatlarni tergov qilish va ochish samaradorligini oshirish hamda obyektlarni identifikatsiya qilish jarayonini ta’minalash maqsadida video va raqamli apparaturalar bilan qayd qilish yordamida olingan obyektlar tasvirini yig‘ish, qayd qilish va tizimlashtirish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV EKMning ichki ishlar organlarida ekspert-kriminalistik hisoblar, kartotekalar, kolleksiya va ma’lumotaxborot fondlarini shakllantirish, yuritish va foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmasi (instruksiyasi)ga muvofiq, buzish quollarining izlari, oyoq kiyimi izlari va avtomobil vositalarining shina qoplamlari izlar kartotekasi respublika IIV, viloyat IIB, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, TIIB, shahar, tuman IIBlarning ekspert-kriminalistik bo‘linmalarida yuritiladi. Hududdagi tezkor vaziyatning o‘ziga xosligi hisobga olinib, boshqa ekspert-kriminalistik hisoblar, kartoteka va kolleksiyalar tashkil etiladi. Tabiiy sharoitda olingan turli ko‘rinishdagi kolleksiyalardan foydalanish yetarli darajada samarali hisoblanadi. Ushbu kolleksiyaga joylashgan obyektlar turli xil ko‘rinishda bo‘lishi va jinoyat hodisalari bilan sababiy bog‘liqlikka ega bo‘lmasi mumkin. Qayd etish belgilari ega bo‘lgani bois, ular yordamchi ma’lumotlar sifatida foydalaniladi. Amaliy faoliyatda quyidagi kolleksiyalardan foydalanish keng tarqalgan: – buzish qurollari sifatida foydalaniladigan instrumentlar, qurilmalar va moslamalar; – turli usullar bilan buzilgan eshik qulflari, kalitlar hamda ochqichlar (qulfni ochadigan moslamalar); – plombalar, nazorat tamg‘alari va qulflash-plombalash qurilmalari; – qo‘lbola alkogol mahsulotlarini idishlar (butilka)ga quyish, tiqinlash (probkalash) va rasmiylashtirish uchun materiallar va moslamalar; 316 – elektr va gaz payvandlash asboblari yordamida bajarilgan turli xil kesmalarning ko‘rinishlari; – elektr uzatish tarqoqlari va boshqa elektr asbob-uskunalarini demontaj (qismlarga ajratish) qilish uchun moslamalar va instrumentlar; – to‘qnashishda farq qiladigan avtomobil faralarining oynalari va boshqa qismlari. Ichki ishlar organlarining kompyuterlashtirilishi, zamonaviy texnika vositalari bilan ta’milanishi munosabati bois alohida ichki ishlar bo‘linmalarida kriminalistik qayd etishning avtomatlashtirilgan hisobini olib borish imkoniyati vujudga keldi. Ilgari ichki ishlar bo‘linmalarida mavjud bo‘lgan, mamlakatimiz va xorijiy davlatlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan oyoq kiyimlarining ustki va tag (podosh) qismlari videoteka namunalari o‘rniga obyektlarning kengroq spektrdagи

dasturlashtirilgan variantlari kirib keldi. Idoralarning normativ hujjatlari izlar bilan ishslashning boshlang‘ich bosqichi hisoblanuvchi buzish qurollari, oyoq kiyimi ishlari (podosh) va avtotransport vositalari shinalarining qoplamlari iz kartotekalarni shakllantirish va ulardan foydalanish bo‘yicha ishlar tartibini belgilaydi. Izlar ekspertiza jarayonidan keyin tegishli izlar kartotekasiga joylashtiriladi. 1:1 mashtabda bajarilgan fotonusxalarni izlar kartotekalariga joylashtirishga ruxsat etiladi. Izlarning izlar kartotekasiga joylashtirilgani haqida ekspert xulosasi to‘g‘risidagi yo‘naltiruvchi xatda tergovchiga yoki surishtiruvni amalga oshirgan shaxsga xabar beriladi. Barcha materiallarining harakati tegishli jurnallarda qayd etilib boriladi. Izlar kartotekasi IIV EKM, IIB, IIIB EKBlarida yaratiladi, shuningdek, muayyan administrativ hududga xizmat ko‘rsatuvchi IIBlarning ekspert bo‘linmalarida ham shakllantirilishi mumkin. Izlarni ekspert-kriminalistik bo‘lim, ekspert-kriminalistik bo‘linmalarga jo‘natish ekspert bo‘linmalar (ichki ishlar bo‘linmalar) rahbarlari (yoki ekspert) tomonidan jo‘natiladi. Ekspert bo‘linmasi rahbari izlar kartotekasi ishini tashkillashtiradi, uni shakllantirish va undan kundalik foydalanish uchun mas‘ul shaxsni tayinlaydi. Izlar kartotekasiga kelib tushadigan obyektlar bitta obyekt boshqa jinoyat sodir etilishida foydalanilgan yoki yo‘qligi faktini aniqlash maqsadida tekshiriladi. Tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonida olingan obyektlar izlar kartotekasida tekshirish uchun 10 kun muddatga yuboriladi. 317 Obyektning identifikatsiyasi yoki mosligi aniqlanganligi haqidagi ma’lumot hududida jinoyat sodir etilgan

Turli jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida daliliy ashyo bo‘lgan hujjatlar bilan ishslashga t o ‘g ‘ri keladi. Jum ladan, o 4zgalar m ulkini talontoroj qilish, m ansabni suiiste’m ol qilish jinoyatlari, firibgarlik, x o ‘jalik ishlarida moliyaviy hisob-kitob hujjatlari bilan bir qatorda turli yozma hujjatlar kriminalistik tekshiruv obyekti hisoblanadi .IIB rahbariga va tekshiruv tashkilotchisiga darhol jo‘natiladi. Buzish qurollari, poyafzal izlari (podosh) va avtotransport vositalari shinalarining qoplamlari izlar kartotekasini tashkil qilish va yuritish bitta obyektdan foydalanib turli jinoyatlarni sodir etish faktlarini aniqlashtirgan holda foydali qidiruv ma’lumotlarini olish imkonini beradi. Bunday ma’lumotlarning bahosi, ayniqsa, gap davomli jinoyatlar haqida borayotganda juda ham yuqori bo‘ladi. Ushbu turdagi izlar kartotekasini yuritishning o‘ziga xosligi identifikatsiya uchun yaroqli bo‘lgan, izlar kartotekasida joylashgan izlarning u qadar katta bo‘lmagan solishtirma og‘irligi iz hosil qiluvchi obyektlarning uncha uzoq davom etmaydigan identifikatsion davri uchun obyektiv hisoblanadi. Yordamchi ma’lumot hisoblari, aynan turli obyektlarning tabiiy ravishda olingan kolleksiyalari, ma’lumot-axborot fondlari guman qilinayotgan obyektlar qidirushi doirasini qisqartirish imkonini beradi, ko‘pgina holatlarda uning aniq turini belgilaydi. Jinoyat izlarini aks ettiruvchi instrumet belgilari ushbu predmetlarning tashqi ko‘rinishi, ularning o‘ziga xos konstruktiv tuzilishi haqida guvohlik berishi mumkin. Hujjat deganda, keng m a ’noda biror hodisani o ‘zida yozma ravishda aks ettiruvchi oddiy ob’ekt tushuniladi.

Kriminalistik m a ’nodagi hujjatlar jinoyat ishi bo‘yicha ma’lum bir hodisalar haqida m a ’lumot beradi. Ba’zi hujjatlam i jinoiy m aqsadda ishlatib, undan qurol sifatida foydalanadilar. Firibgarlik jinoyati b o ‘yicha qalbaki hujjat yordam ida m ab lag ‘ undirish, soxta hisobraqam i va veksellar bilan bankadan pul olish va shu kabi

hujjatlar ish yuzasidan ashyoviy dalil hisoblanadi. JPKning 84-moddasida ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergen yoki bermaganligi, uni sodir etgan shaxsning aybli yoki aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun aham iyatga m olik boshqa holatlarini aniqlashga asos b o ‘ladigan h ar qanday m a ’lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi. Bu ma’lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, guman qilinuvchi ayblanuvchining ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar ovoz yozuvlari, videotasvirlar, fotosuratlar va boshqa tegishli hujjatlar bilan aniqlanadi. A shyoviy dalillar kriminalistik m a ’noda jinoyat ishini hal qiluvchi muhim omillar bolib, ular jinoiy harakatning izlarini o ‘zida aks ettiradi yoki jinoyatni sodir etishda qurol sifatida ishlataladi. Ko‘rsatilgan sifatlar hujjatlarga nisbatan tegishli boMganda ular ham daliliy ashyo hisoblanadi. Hujjatlami ashyoviy dalil sifatida tekshirishda ikki xil m a’lumot olish mumkin bolmadi: qolyozma matn, imzo, raqam va boshqa yozuvlar kim tomonidan bajarilgan va ikkinchisi hujjat asl nusxami yoki qalbakiligi, qaysi qismi qanday usulda o ‘zgartirilgan, o ‘chirilgan, qo‘srimcha yozuvlar kiritilgan va hokazo. Ashyoviy dalil hisoblangan hujjatlami ishga qay darajada molik ekanligini aniqlash uchun tergovchi ularni ko‘zdan kechirib aniqlanadi. Ashyoviy dalil boMgan hujjatlami tekshirishning asosiy v azifikasi - qoMyozma matnlarini va imzolarini kim tomonidan bajarilganligini aniqlashdir. Xatshunoslik ekspertizasining tek shiru v ob yek tlari hujjatdagi qoMyozma matnlari: harfli, raqamli, shartli belgilar - shifrovka, imzo shaklidagi yozuvlardir. QoMyozma xatlarni (dastxat) tekshirish va uning kim tomonidan bajarilganligini (yozilganligini) aniqlash insonning o‘ziga xos yozish usuli, y a ’ni m alaka xususiyatiga bogMiq. Y ozish m alakasi inson hayotining ma’lum davrida boshlanadi a shakllanadi. U m um iy yozish qoidasi xat bilan shug‘ullanuvchiga ! boshlangich m a’lum otni husnixat qoidasi asosida beriladi. Har bir harf, raqanini yozish usuli, ayrim qism elem entlarini bir chiziqda jo y lash u v i yozish jaray o n id a j o ‘ziga qulay va mos holatni qoMlab um um iy yozish qoidasi chegarasidan chiqib, l faqat o ‘ziga xos uslubni yaratadi va qoMlaydi. Masalan, yozish qurolini qiya yoki to‘g‘ri parallel ushlab yozish natijasida harflarning o ‘ng yoki chap tomon qiya bolishi, yozishning yo nalishi, harflarning bir-birlari bilan birikishi, jo y lash u v i i kabi alom atlar hosil boMadi. [ Yozish malakasi o ‘rta m aktab davridan shakllana boshlaydi. B oshlangM ch j m aktab o ‘quvchilari yozish qoidasiga binoan h arf va raqam larni yozishda qalam , j ruchkani o‘ngdan chapga yoki, aksincha, y‘nalishda bajaradilar. Y ozishni « o ‘rganish jaray oid a xatning yozilishida harflar shakli sekin-asta o ‘zgaradi, i um um qoida chegarasidan chiqqa boshlaydi. Bu jaray o n g a insonning fiziologik i xususiyati ta ’sir etadi. I Shu bilan birga, dastxat qotib qolgan, o ‘zgarm aydigan qobiliyat em asdir. Fiziologiya dastxatni o lzini o ‘zi boshqaruvchi m urakkab funksional qobiliyat | sifatida tasvirlovchi. Shunga ko ‘ra dastxat turli o ‘zgaruvchan sharoitlarda [ tu rg ‘unligini o ‘zgartirdi, m uayyan chegaralarda turli tusga kirib turli ta ’sir etuvchi kuchlar oqibatida o ‘zg arish i tabiiy holdir. Dastxat quyidagi xususiyatlarga ega: - dinamik turg‘unlik (yoki nisbiy mustahkamlik); - turli ta ’sir etuvchi turlarga nisbatan o ‘ziga xos o ‘zgaruvchanlik. Xatshunoslik tekshiruvini o’tkazishda qolyozma imzoni aynan kim tomonidan yozilganligini aniqlash imkonini insonning ana shu yozish qobiliyati - dastxati beradi. Xat yozish jarayoni, shuningdek yozilgan matn: so‘z, raqam, imzo kriminalistik tekshiruv obyekti sifatida xat deb tushuniladi. Kriminalistikada qoMyozma matnlar, qanday shaklda boMishidan qat’yi

nazar, dastxat deb yuritiladi. Im zo qoMyozmaning alohida bir turi boMib, o ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun uni tekshirish uslubiyati dastxatni tekshirish uslubiyatidan birmuncha farq qiladi. Dastxat insonning mактабда o 'qib, ilm olish davrida rivojlanadi va taxminan o'rta m a'lumotga ega boMish arafasida mustahkamlanadi. Shu vaqtдан boshlab dastxat bo'yicha uni bajargan shaxsnii aniqlash imkoniyati tugiladi. Dastxatning mustahkam boMib shakllanishiga qator omillar, ya'ni insonning anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlari, yozish malakasi, faoliyatini ta'sir etadi. Shu bilan birga, insonning o 'ziga xos odat boMib qolgan yozish harakati takrorlangan sari mustahkamlanib, individuallik aynanlik xususiyatiga ega boMadi. Bu ilmiy nazariya o 'p yillar davomida eksperimental tadqiqotlar asosida va ekspertiza amaliyotida isbot qilingan. Dastxatning tekshiruv obyekti sifatida mustahkam boMishi nisbiydir. Chunki xat insonning ongli ravishdagi faoliyatidan bir k o 'rinish boMib, unga ob yek tiv va su byekativ o m iilar ta 'sir etadi. O byekativ omillar boMib yozish sharoitiga tegishli bolgan holatlar, ya'ni atrof-muhit ta 'siri, yozish quroli, buyumga yozilishi kabilalar hisoblanadi. Subyekтив omillarga yozayotgan shaxsning psixologik kasallik, mastlik, em otsional va shu kabi insonning o 'ziga xos bolgan boshqa holatlari kiradi. Shuningdek, yozish jarayonida shaxs qasddan yozuvi (imzosi)ni o 'zgartirib yozishga harakat qilishi mumkin. Mana shu sabab omillar xatning nisbiy mustahkamligi va individualligini belgilaydi. KoMsatilgan omillar dastxatning ayrim um um iy xususiyatiga ta'sir etib, asosiy individuallik vaqt sharoitiga nisbatan boMgan mustahkamligi xat (imzo)ni bajargan shaxsning aynanligini belgilash uchun imkon beradi. Ekspertiza tekshiruvi natijasida yozgan shaxsnii aniqlash bilan bir qatorda, xatning yozilish sharoitini, yozgan shaxsning salomatlik holatlari ham aniqlanishi mumkin. Bunday holatlar xatdagi "nutq"ning umumiyligi, xususiy belgilar asosida amalga oshiriladi. Masalan, yozayotgan shaxsning ruhiy hayajoni va boshqa holatlari odatlangan yozish usuliga ta'sir etib, shu bois yozuvning bir tekisligi buziladi, yozish tezligi yuqori boMadi yoki pastlashadi. Natijada xatning aniqligi, ravonligi o 'zgaradi, harflar tuzilishi birm uncha soddalashadi. Qolyozmada ayrim buzilishlar kuzatiladi. O 'ziga xos holatlar yozish sharoitining o 'zgarishida ham yuz beradi. M asalan, tik turib yoki yotgan holda yozish, qolning jarohatlanishi natijasida chap qol yoki boshqa moslama bilan yozish va hokazo. Xatshunoslik ekspertizasini o 'tkazishda qollanadigan tekshiruv usullari kriminalistik diagnostika va identifikatsiya nazariyalarining urnumiy uslubiyoti qoidasiga asosan o'mkaziladi. Shu bilan birga, mazkur ekspertizaning m ohiyati, tekshiriluvchi obyektlarning o 'ziga xos bolgan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekspert zarur boMgan boshqa usullarni ham qollashi mumkin. Tekshiruvning birinchi b osqichida ekspert yuborilgan ekspertiza materiali bilan tanishib chiqadi, uni tayinlash uchun qanday zarurat tugllganligini, ekspertiza hal qiladigan masalalar aniq ifodalanganligi, tekshirish uchun yuborilgan obyektlarning (hujjalarning) mavjudligi va boshqa malumotlami aniqlaydi. Ekspert tekshiruvining navbatdagi vazifasi ashyoviy dalil boMgan hujjatning qolyozma matnlarini (harfli, raqamli) va imzolarning mansublik sifatlari va xususiy belgilarini tahlil qilishdir. Ular ichida bir xil harflarda takrorlanadigan va turg'unlik xususiyatiga ega boMgan, mustahkam shakllangan belgilar inobatga olinadi. Taqqoslab tekshirishga yuborilgan dastxat (imzo) namunalari ham shu tariqa alohida-alohida k o 'zdan kechiriladi. Qolyozmani (imzoni) bajarishda gumon qilingan shaxslarning soniga

qarab, ularning ayrimlarini guruh mansubligi asosida tanlab dastxatlardagi umumiyligi va xususiy belgilarni aks ettiradigan jadval chizmalar tayyorlanadi. Dastxat va imzodagi belgilar harflarning alfavit tartibida joylashuviga asosida tahlil qilinib, ulardagagi xususiyat tegishli tartibda jadvalga tushirilsa, solishtirib tekshirish bosqichida birmuncha qulaylik tuglladi. Birinchi navbatda, um um iy belgilarga e'tibor beriladi, chunki ular yozgan shaxsning umumiyligi yozish saviyasi, dastxatning shakllanishidan dalolat berib, gumon qilinuvchi shaxslarning xatini ajratib olish imkonini beradi. Alohidagi k o'zdan kechirish jarayonida ekspertizaga taqdim etiladigan namunalar ham o'zaro solishtiriladi, y'a ni bir shaxs nomidan yuborilgan dastxat, imzo namunalari (erkin, eksperimental va boshqa turdagilar) necha shaxs tomonidan bajarilgani ham hal qilinadi, shundan so'ng ularni ashayoviy dalil bolgan hujjatning qolyozmasi bilan solishtiriladi. Tadqiqot jarayonida tekshiriluvchining qolyozma (imzo)lardagi qasddan o'zgartirib yozilgandan hosil bolgan umumiyligi va xususiy belgi alomatlari alohida inobatga olinadi. Bu holatlar xatni yozish sharoiti, uni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Imzolarni tekshirishda imzoning harfli qismidagi umumiyligi va xususiy belgilari, harfsiz chiziqlar, aylanma sirtmoqsimon yozuvlarning yo'nalishi, o'zaro joylashuviga imzoning oxirgi yakunlovchi qismi, jim jimaning belgi xususiyatlarini aniqlab, ana shunday belgi sifatlarni namuna bolgan imzolarda ham mavjudligini kuzatish lozim. S o'ngra solishtirish uchun tanlangan belgilar jadvalga kiritilib, o'xshash harflar va harfsiz o'qilmaydigan chiziqlardagi alomatlari belgilanadi. Ashayoviy dalil bolgan hujjatdagi imzolar ko'p hollarda ularni bajargan shaxslarning tom onidan o'zgartirilib yoziladi. Bunday hollarda imzodagi belgilar qismi an yoki to'ma o'zgarib ketishi mumkin. Yozayotgan shaxsning imzosi shaklan o'zgarsada, uning o'ziga xos bolgan yozish uslubi k o'pincha im zoning oxirgi qismi ida saqladi, o'zgarishsiz qoladi. Bu vaziyatda gumon qilinuvchi dastxatining namunalaridan foydalanish, ulardan solishtiruv uchun tegishli harflarni topib, taqqoslab o'mkazish o'z samarasini berishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2020 yil 25 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Palatasiga murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 yanvardagi PQ-13-son «O'zbekiston Respublikasi Davlat o'q-gilzotekasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrdagi 1030-son «Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatini bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida»gi qaror
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrdagi PQ-4546- son «Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruvi tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812- son «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon

6. Mirziyoyev Sh.M. 2019 yil 07 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag'i ma’ruzasi.

7.G.F.Nikishin va boshq. Mikroobyektlar tadqiqoti: O‘quv qo‘llanma— Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 88 b.

8. S.A.Nurumbetova, T.B.Mamatkulov, F.E.To‘rayev Portret ekspertizasining zamonaviy imkoniyatlari: O‘quv qo‘llanma. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 88 b.

9. G. F. Nikishin, X. T. Nazarov, Sh. X. Xasanov, A. D. Xusanov Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining ish faoliyatini tashkil etish: O‘quv qo‘llanma – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 47 b.

10. Sh.X.Xasanov, S.S.Nuriddinov, A.D.Xusanov, I.E.Eshmetov Kriminalistik ekspertizalarni o‘tkazishdagi xatolar: O‘quv-metodik qo‘llanma – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 68 b.

11. Sh.X. Xasanov, I.R. Astanov, A.K. Zakurlayev, T.B. Mamatqulov Sud ekspertizasi bo‘yicha tavsiyalar: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 211 b.

12. <http://akadmvd.uz>(O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)

13. [httr:// www.academy.uz](http://www.academy.uz)(O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)

14. [httr:// www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)(Mirzo Ulug‘bek nomidagi Uzbekiston milliy universiteti)

15. [httr:// www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)(Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot - texnologiyalari universiteti)

16. <http://195.158.18.42/>(Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi milliy nashrlarning elektron arxivi)

17. [httr:// www.uzscience.uz](http://www.uzscience.uz)(O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar agentligi)

18. [httr:// eduportal.uz](http://eduportal.uz) (Xalq ta’limi vazirligining axborot-ta’lim portali)

19. <http://gov.uz>/(O‘zbekiston Respublikasi huqumat portali)